



TOURIST AREAS LOCATED IN BAXMAL DISTRICT AND THEIR LEVEL OF DEVELOPMENT

N. N. Jurakulova

PhD student

Jizzakh State Pedagogical University

Jizzakh, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: road infrastructure, international tourism, tourists, travelers, tourist route, tour package, site, monument, folk medicine, Oykor, “Novqa ota,” Bakhmal district, pilgrimage site.

Received: 14.04.25

Accepted: 16.04.25

Published: 18.04.25

Abstract: This article provides information about Bakhmal district, including its tourist zones, historical monuments, mountainous areas, as well as the presidential decrees aimed at further developing tourist areas and promoting domestic tourism. It also discusses the implementation of these decrees, the opportunities created and existing shortcomings, along with information about the road infrastructure.

BAXMAL TUMANIDA JOYLASHGAN TURISTIK HUDUDLAR VA ULARNING RIVOJLANISH HOLATLARI

N. N. Jo'raqulova

tayanch doktorant

Jizzax davlat pedagogika universiteti

Jizzax, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: yo'l infratuzilmasi, xalqaro turizm, sayyohlar, turistlar, turistik marshrut, turpaket, obekt, yodgorlik, xalq tabobati, Oyqor, “Novqa ota”, Baxmal tumani, ziyoratgoh.

Annotatsiya: Ushbu maqolada Baxmal tumani va unda joylashgan turistik zonalar, yodgorliklar, tog'li hududlar haqidagi ma'lumotlar, Prezidentimizning turistik hududlarni yanada yaxshilash va ichki turizmni keng targ'ib etish borasidagi farmonlari va ularning ijrosi, yaratilgan imkoniyatlar va kamchiliklar, yo'l infratuzilmasi haqidagi ma'lumotlar aks etgan.

ТУРИСТИЧЕСКИЕ ЗОНЫ, РАСПОЛОЖЕННЫЕ В БАХМАЛЬСКОМ РАЙОНЕ, И ИХ УРОВЕНЬ РАЗВИТИЯ

Н. Н. Джуракулова

базовый докторант

Джизакский государственный педагогический университет

Джизак, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: дорожная инфраструктура, международный туризм, туристы, путешественники, туристический маршрут, турпакет, объект, памятник, народная медицина, Ойкор, “Новка ота”, Бахмальский район, место паломничества.	Аннотация: В данной статье представлена информация о Бахмальском районе, расположенных в нем туристических зонах, памятниках, горных территориях, а также указах Президента, направленных на дальнейшее развитие туристических зон и продвижение внутреннего туризма, их реализация, созданные возможности и имеющиеся недостатки, информация о дорожной инфраструктуре.
--	--

Kirish.

“O‘zbekiston respublikasida turizm sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 13-avgustdagi PF-5781-sonli Farmonida qayd etilganidek, mamlakatimizda turizm infratuzilmasidagi mavjud muammolarni hal etish, taqdim etilayotgan xizmatlar sifatini oshirish va jahon bozorlarida milliy turizm mahsulotlarini faol targ‘ib qilish, turizm tarmog‘ining kadrlar salohiyatini kuchaytirish orqali turizm sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar samaradorligini oshirish hamda respublikaga kirib kelayotgan xorijiy fuqarolar sonini keskin ko‘paytirish maqsadida, shuningdek, 2019 — 2025-yillarda O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish konsepsiyasining asosiy yo‘nalishlariga muvofiq: qator sohalarda va viloyatlar miqyosida 2019- yil oxiri va 2020-yildan boshlab turistik zonalarni qayta rivojlantirish, yashil yo‘laklar tashkil etish, viza olish jarayonini soddalashtirish, xalqaro turizm bilan bir qatorda ichki turizmni rivojlantirishda bir qancha tadbirlar tashkil etish, transport infratuzilmasini yaxshilash kabi qator o‘zgarishlar amalga oshirilib kelmoqda.

Shuningdek, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”ning 35-maqsadi “O‘zbekiston bo‘ylab sayohat qiling” dasturi doirasida mahalliy sayyohlar sonini 12 million nafardan oshirish hamda respublikaga tashrif buyuradigan xorijiy turistlar sonini 9 million nafarga yetkazish...” yuzasidan muhim vazifalar belgilab berilgan. Bu borada respublikamizda, xususan Jizzax viloyatida joylashgan qator tumanlarda turizm sohasini jadal rivojlantirishning ustuvor maqsad va vazifalarni belgilash, uning respublika iqtisodiyotidagi o‘rni va ulushini yanada

yaxshilash, turizm va transport infratuzilmasini takomillashtirishga qaratilgan tadqiqotlar muhim hisoblanadi.

Turistik oqimlarni ko'paytirish, turizmni rivojlantirish uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tomonidan 2023-yilni Shanxay hamkorlik tashkiloti makonida turizmni rivojlantirish yili, deb e'lon qilish taklif etilgan edi. 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida "O'zbekiston bo'ylab sayohat qiling" dasturi doirasida "to'siqsiz turizm" infratuzilmasini mamlakatning asosiy turizm shaharlarida keng joriy qilish kabi vazifalar belgilab berilgan. Bu borada, jumladan, Jizzax viloyatining Zomin va Baxmal tumanlarida turizmning barcha sohalarini kuchaytirish, turistik oqimni jonlantirish, yangi turistik marshrutlar va turpaketlar yaratish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Bunda: tanlab olingan turistik imkoniyatlari yuqori Zomin va Baxmal tumanlarining turistik-rekreatsiya salohiyatidan foydalanish imkoniyatini oshirishga doir aniq chora-tadbirlar tizimi ishlab chiqish maqsadga muvofiq. Tadqiqot davomida "Yashil hudud" tamoyillari asosida tumanga tashrif buyuruvchi turistik oqimni rejali yo'naltirish, aniq yo'nalishlar, ya'ni marshrutlarni yo'lga qo'yish masalasi ham e'tiborga olinadi. Xorijiy tajribalar asosida tumanlar turistik salohiyatidan kelib chiqib aholi uchun sog'lomlashtirish maskanlari tashkil etish, mavjudlarini modernizatsiya qilish, tog' va tog' oldi hududlarida uy-mehmonxonalarini tashkil etish belgilab olingan eng ustuvor vazifalardan bo'lib xizmat qiladi.

Respublikamizda turistik salohiyati yuqori mintaqalarda turistik marshrutlarni yo'lga qo'yish masalasi eng dolzarb masalalardan biridir. Jumladan tadqiqot olib borilayotgan Baxmal tumanida quyidagi turistik marshrutlarni yo'lga qo'yish maqsadga muvofiq. Jizzax viloyati bo'yicha Baxmal tumanidan o'tuvchi quyidagicha aylana marshrut (...boshi va oxiri bir geografik punktda joylashgan harakat yo'nalishi) tashkil etilgan. – Jizzax shahar-Sharof Rashidov-G'allaorol –Baxmal-Jizzax shahar. Bu kabi sayyohlik marshrut yo'nalishlari bir nechta bo'lib, bugungi kunda sayyohlarning erkin dam olishlari va yo'l infratuzilmalarida hech qanday kamchiliklarga uchramasliklari uchun atroflicha choralar ko'rilgan.

Turistik hududlarni tashkil etishda dam oluvchilarning kontingentiga ko'ra sog'lomlashtirish maskanlari tashkil etish, mavjud dorivor o'simliklar katalogi va hududiy joylashuv o'rnini aks ettiruvchi xarita, video-roliklar tuzish maqsadga muvofiqdir. Jizzax viloyatida asosan 3 tuman: Baxmal, Zomin, Forish dorivor o'simliklar manbai hisoblanadi. Mahalliy aholi va tabiblar ushbu dorivor o'simliklardan turli xil kasalliklarni davolashda xalq tabobatida yillar davomida foydalanib keladi. Bu kabi noyob o'simliklarni hududga tashrif buyurgan sayyohlarga ham tavsiya qilishadi.

Baxmal tumani shuningdek, Jizzax viloyatining tog'li hududlaridan biri hisoblanadi. Shifobaxsh qimizlari ham inson salomatligi uchun foydali hisoblanib, dunyoda iqlim-qimiz-

davolash kurortlarining umumiy soni 40 taga yaqin. Ulardan ba'zilar O'zbekistonning dam olish maskanlaridan biri Baxmalda ham mavjud.

Jizzax viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida Baxmal tumanida arxeologik obyektlar soni 15 ta, arxitektura obyektlari 11 ta, monumental san'at obyektlari soni 2 ta bo'lib, shu obyektlar ichida diqqatga sazovor joylar bittani tashkil etadi.

Baxmal tumani arxitektura yodgorliklarini quyidagilar tashkil qiladi:

1. Terakli ota ziyoratgohi (XV-XX asrlar) "Baxmal" MFY, Terakli q.q.
2. O'smat ota (Boybul tepa-1), V-VII asrlar. "O'smat" MFY, Sharof Rashidov k.si.
3. Malik Ajdar ziyoratgohi X-XX asrlar. "Baxmal" MFY, Duvlat qishlog'i.
4. Novqa ota ziyoratgohi va masjidi binosi, XVIII asr. "Baxmal" MFY, Novqa qishlog'i.
5. Said Mirxalillox Xonaqosi, masjidi, XV asr. "Baxmal" MFY, Bog'imozor q.q.
6. "Xo'ja ko'ndalang ota" ziyoratgohi. XV asr. Baxmal tumani Qirq qishlog'i.
7. "Chinor bobo" ziyoratgohi. XV asr. Baxmal tumani Bog'imozor q.q.
8. "Muhammad Said Xo'ja Abu Said Mo'min Holiq Xo'ja" ziyoratgohi. IX asr. Baxmal tumani, Oqqo'rg'on QFY.
9. "Xo'ja Ismoil Xalifa" ziyoratgohi. XVIII asr. Baxmal tumani, Baxmal qfy.
10. "Palaxmon ota" ziyoratgohi. XVIII asr. Baxmal tumani, Baxmal QFY. Qorabuloq q.q.
11. "Tangatopdi" ziyoratgohi XVII asr oxiri XVIII asr boshlari. Baxmal tumani, Baxmal MFY, Tangatopdi q.q.

Baxmal tumanida joylashgan monumental san'at yodgorliklari:

1. Ikkinchi jahon urushi qatnashchilariga qo'yilgan yodgorlik majmuasi. 1982-yilda tashkil etilgan bo'lib, O'smat shaharchasi markazida joylashgan
2. Noma'lum soldat monumenti. 1997-yil Novqa qishlog'ida tashkil etilgan.
3. Baxmal tumanining diqqatga sazovor obyekti "Novqa ota" ziyoratgohi hisoblanib, ziyoratgoh Baxmal tumanining janubi-sharqida, Turkiston tizma tog'lari etagidagi Novqa qishlog'ining tog' tomon biqinida, uch tomoni qir va adirlar bilan o'ralgan ixcham soylikda, ko'hna "Novqa ota" qabristonining yonginasida joylashgan. Baxmal tumani markazi O'smatdan besh chaqirimlar, Jizzax shahridan esa 90 kilometr uchamasi uzoqlikda. Hududi 2,25 gektarni tashkil etadi.

Baxmal tumanida joylashgan turistik hududlardan biri hisoblangan Oyqor Turkiston tizma tog'larining bir qismi bo'lib, Chumqor tog'ining baland joyida joylashgan. Chumqor tog'ning Oyqordan ham balandroq qismlari ko'p bo'lsa-da, ular ichida Oyqor o'z go'zalligi bilan ajralib turadi. Oyli tunlarda qor qoplami o'zidan sehrli oq nur taratgandek bo'ladi. Oyqorning dengiz

sathidan 3200 metr, O'smat posyolkasidan 2500 metr baland bo'lgan ulkan gavdasi to'lin oyli kechalarda takrorlanmas manzara hosil qiladi. Shu sababli Oyqor tog'lar ichida shunday nom bilan atalgan. Ushbu hududning geografik joylashuvi va bu yerda tashkil qilingan, sayyohlar uchun mo'ljallangan imkoniyatlar har yili ham mahalliy, ham xalqaro sayyohlarni jalb etsa-da, odamlar oqimi kutilganidek yaxshi emas. Bunda haligacha yaxshilanmagan yo'llar, atrof muhitning tozalik darajasi yuqori emasligi, mahalliy aholining turistlar bilan muloqot qilish salohiyati darajasi yuqori emasligi kabi muammolar sabab bo'lmoqda.

Oyqor hozirgi yozuvchilar o'rtasida ham mashhurdir. Uning haqida M.Sheverdin va Nurali Qobul o'z kitoblarida ko'p yozishgan. U haqida IX-XII asr arab sayyohlari va Bobur ham yozib ketgan. Hozirgi vaqtda Oyqor dam oluvchilar uchun ajoyib maskanlardan biri bo'lib, u yerga dam olish uchun Jizzax, G'allaorol va boshqa joylardan aholi chiqadi. Qishda ham, yozda ham dam olish mumkin bo'lgan, Oyqor yonida qishlik chang'i sporti bazasi tashkil qilinsa, bu bazadan deyarli 5 oy noyabrdan martgacha foydalanish mumkin. Chunki bu kabi tog'li hududlarda qish fasli tumanning boshqa joylariga qaraganda sovuqroq bo'lishi qishki sport turi uchun qulay joy bo'lishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 18-iyuldagi PF-102-sonli "O'zbekiston Respublikasida turizm infratuzilmasini yaxshilash va xorijiy turistlar oqimini yanada oshirishga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi farmonida nazarda tutilgan kirish turizmi faoliyatini amalga oshiruvchi O'zbekiston Respublikasi rezidenti bo'lgan turoperatorlarni xorijiy mamlakatlardan respublikaga turistlarni jalb etish uchun mablag'lar ajratilishi belgilangan va ushbu qarorning uchinchi bandida nazarda tutilgan zamonaviy marketing texnologiyalaridan, shu jumladan xalqaro media va ijtimoiy platformalar, butunjahon sport, madaniyat va san'at tadbirlari maydonidan foydalangan holda turizm brendini targ'ib qilish tizimini yaratish kabi masalar ijrosining dalili sifatida Baxmal tumanida ham bir qancha tadbirlar amalga oshirilgan bo'lib, tuman sport turizmi rivojlangan hudud ham sanaladi.

Hududda joylashgan Jo'm-jo'm qishlog'ida to'rt yildan buyon ekstremal turizm bo'yicha xalqaro musobaqa bo'lib o'tadi. Tumanda ana shunday maskanlar soni yana bittaga ortgan. Mo'g'ol qishlog'ida sport turizmi yoshlar va bolalar dam olish maskanining ochilish marosimi tashkil etilgan. Said Mirhalilloh ziyoratgohiga tutash joyda ish boshlagan ushbu maskanga sayyohlar oqimi endi yanada oshadi. Asosan mahalliy ziyoratchilar keluvchi ushbu ziyoratgohga eltuvchi tog' yo'l asallashtirildi. Dam olish va tadbirlar o'tkazish uchun binolar qurildi. Baxmal tumani hokimligi va viloyat turizm boshqarmasi hamkorligida skayranning balandlik bo'ylab yugurish sport turi bo'yicha xalqaro musobaqa tashkil etildi. Unda Rossiya, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston va O'zbekistondan skayrannerlar ishtirok etishdi. Sportchilar balandlik sari ko'tariluvchi 6 km tog' yo'li bo'ylab yugurdilar.

Skayranning qoidaga muvofiq, balandligi kamida 2000 metr va oʻrtacha nishab 6 foiz boʻlgan togʻlarda oʻtkaziladi va albatta 30% qiyali uchastkalarini oʻz ichiga olishi shart. Marshrut UIAA tasnifiga koʻra II toifadan yuqori boʻlmagan toshloq joylarni oʻz ichiga oladi. Baxmal togʻlari harakatlanish uchun qulay, baland boʻlganligi uchun skayranning kabi sport turlari uchun ham juda mos kelishi, xalqaro musobaqa ishtirokchilariga koʻp jihatidan manzur boʻldi. Ushbu fikrimning dalili sifatida musobaqa ishtirokchilaridan biri hisoblangan qirgʻizistonlik sportchi va jamoa murabbiyi Ilmat Dautov ham oʻz taassurotlarida aytib oʻtdi. Bu tadbir sabab 50 nafarga yaqin xorijlik sportchi tumanning sayyohlik imkoniyatlari haqida yorqin tasavvurga ega boʻlishdi. Bu kabi sportchilar har yili ekstremal turizm boʻyicha Baxmalda tashkil etiladigan musobaqada jamoa bilan ishtirok etib kelishadi. Ushbu togʻli tuman aynan sport va ekstremal turizm boʻyicha nom chiqarishi ehtimoldan holi emas. Ular shuningdek, yurtimizda sayyohlikni targʻib etishda sportga eʼtibor qaratilayotganidan xursand ekanliklarini bildirishdi. Musobaqaning yana bir ishtirokchisi Qozogʻiston-Xitoy kolleji oʻquvchisi Aisha Merybek oʻz taassurotlarini bayon etdi: “Kollejimizda piyoda turizmi boʻyicha murabbiy Rinat Altpisov tashabbusi bilan sport turizmi boʻyicha klub tashkil etilgan. Biz yurtimiz nomidan turli xalqaro musobaqalarda ishtirok etamiz. Samarqand shahrida boʻlib oʻtgan marafonda 2 ta medalga sazovor boʻldim. Jizzaxda tashkil etilgan skayranning boʻyicha xalqaro musobaqaga taklif etilganimizdan xursandman. Bu yerga kelguncha tik jarlik boʻylab oʻtgan togʻ yoʻllaridan yurdik.” Shuningdek, dam olish maskanida zamonaviy sanitariya-gigiyena shoxobchalarining koʻplab qurilgani musobaqa ishtirokchilariga amaliy koʻmak boʻldi. Ishtirokchilarga kerakli xizmatlar tashkil etilgan boʻlib, musobaqa davomida yuzaga kelgan muammolarga yordam berishga xizmat qiladi. Musobaqa yakuniga koʻra, Jizzax shahridagi Sambhram universiteti talabasi Azizbek Tolibjonov marraga birinchi boʻlib yetib keldi. Keyingi oʻrinlar Oʻzbekiston va Qozogʻiston vakiliga nasib etdi. Qizlar oʻrtasidagi bahslarda birinchi va ikkinchi oʻrin Rossiya, uchinchi oʻrin yurtimiz vakiliga nasib etdi. Gʻoliblar tashkilotchilarning qimmatbaho sovgʻalari va medallar bilan taqdirlanishdi.

Tadbirda shuningdek, Baxmal tumani xotin-qizlari oʻrtasida oʻtkazilgan sport musobaqalari gʻoliblari ham esdalik sovgʻalariga sazovor boʻlishdi. Mehmonlar oʻzbekona taomlar bilan mehmon qilindi, tumanga xos hunarmandchilik namunalari koʻrgazmasi namoyish etildi hamda Jizzaxning sayyohlik manzillari aks etgan gid-xaritalar tarqatildi. Bu kabi musobaqa soʻnggidagi tadbirlar ishtirokchilar va tomoshabinlarda ijobiy taassurotlar hosil qilishga xizmat qildi. “Barlos” folklor xalq havaskorlik jamoasining chiqishlarini ham amalga oshirishdi. Sayyoh-sportchilar dam olish bilan birga bir necha kun davomida “Novqa ota” ziyoratgohi, egarchilik ustaxonasi, olmozor bogʻlariga sayohat uyushtirishlari mumkin boʻlgan qator imkoniyatlar ham yaratilgan.

Erishilgan bu kabi yutuqlarga qaramasdan, Baxmal tumanining turizm sohasi rivojlanishi jarayonida bir necha kamchiliklar ham koʻzga tashlanadi. Xususan, yoʻl infratuzilmasida turistik

obyektlarga olib boruvchi ba'zi yo'llarning ta'mirlanmaganligi, taomlanish muassasalarida, sayyohlar uchun tashkil qilingan mehmonxonalarda sanitariya sharoitlarining qoniqarli emasligi muammoning bir tomoni bo'lsa, reklama, targ'ibot ishlarining sust ekanligi ya'ni, Baxmalning turistik joylari haqida keng omma xabardor emasligi, internet va ijtimoiy tarmoqlarda reklama salohiyati va ko'lami sust olib borilayotganligi masalaning ikkinchi tomonini namoyon qiladi.

Bu tumanga kelgan sayyohlarga har xil ko'rinishdagi bir necha marshrutlarni taklif etish mumkin. Bulardan Oqtoshsoy, Kattasoy va Ko'ktepa dovoniga (2600 metr) qilinadigan sayohat marshrutlari mashhurdir. Baxmal bir-biridan keskin farq qiluvchi ikki geografik hududdan tashkil topgan. Birinchisi, Sangzor daryosining keng o'zani bo'yidagi tepalik joylardir. Bu zona 80 kilometrdan oshiqroq joyni egallab, G'allaorol shahridan Qorashaqshaq qishlog'igacha boradi hamda sayyohlarni asosan bahor va kuzda jalb etadi. Ikkinchisi, yozning jazirasida sayyohlar tog'li zonaga, o'rmon va suv, salqin hukmron bo'lgan joyga intilishadi. Sangzor havzasi yonidan o'tib, Zominsuvga ketuvchi avtomobil yo'li qurilgandan keyin Baxmalga borish qulaylashdi. Avtosayyohlar bu asfalt yo'ldan borib, Avliyo, O'smat, Dang'ara, Ko'kjar va Qashqasuvni tomosha qilishlari mumkin.

Shu bilan bir qatorda tumanda joylashgan ayrim ziyoratgohlar nafaqat mahalliy aholi, balki boshqa hududlardan keladigan sayyohlar oqimi uchun ham muqaddas joy hisoblanib, ularni o'ziga jalb qilib kelmoqda. Ushbu yodgorliklar ham tarixiy, ham diniy-madaniy qarashlarni o'zida mujassam etgan.

Baxmal tumani markazida Qo'rg'ontepa poyida so'lim go'sha "O'smat ota" ziyoratgohi bor. O'smat tarixan avvalroq, milodning boshlarida paydo bo'lganligini tarixiy asori-atiqalar, arxeologik materiallar tasdiqlaydi. Baxmallik yozuvchi Sayyid Azim tarixchi olimlar – Olimjon va Jaloliddin Jo'rayevlar fikriga tayanib, O'smat ota qabrini o'smatlik fiqhshunos olim, o'z davrining yirik qonunshunosi bo'lmish Abul Fath Muhammad ibn Abdulhamid O'smandiy as-Samarqandiy nomi bilan bog'laydi. Abul Fath O'smandiy 1095-yili tavallud topib, 1158-yili, 63 yoshida vafot etganligi ma'lum. O'smat ota ziyoratgohi Baxmal tumanining markazida, bohavo tog' buloqlari qurshovida joylashgan bo'lib, yer maydoni yarim gektarni tashkil etadi. Ayni paytda rekreatsion-hordiq, ziyorat maqsadlarida foydalanilmoqda.

"Novqa ota" ziyoratgohi. Bu manzil Baxmalning Novqa qishlog'idagi qadim va ko'rkam ziyoratgoh. Bu manzildagi Beshiktoshga Samarqand Hukmdori Juvonmardxonning xotinlari va ikki bolasi Novqa qishlog'ida mang'itlar tomonidan 1578-yili qatl etilganligi haqidagi bitiklar yozib qoldirgan. Ziyoratgohning "Novqa ota" deya nomlanishini ko'proq "Naq'atun" (arabcha)-ya'ni, "tuya" ma'nosi bilan bog'lashadi. Bundan tashqari ba'zi olimlarning fikricha, Novqat "yashil joy", "yashnagan manzil" degan ma'nolarini bildiradi. Baxmallik o'lkashunos Sayyid

Azimning “Baxmalnoma” kitobida shunday soʻzlar bor: “Ustrushona davlati tarkibidagi shaharlarning biri hozirgi Novqa bulogʻi atrofida boʻlgan. Shahar “Naukat” deb atalgan”.

Ziyoratgoh Baxmal tumanining sharqiy-janubida, Turkistontizma togʻlari etagidagi Novqa qishlogʻining togʻ tomon biqinida, uch tomoni qir va adirlar bilan oʻralgan ixcham soylikda, koʻhna “Novqa ota” qabristonining yonginasida joylashgan boʻlib, Baxmal tumani markazi Oʻsmatdan besh chaqirim, Jizzax shahridan esa 90 kilometrlar chamasi uzoqlikda joylashgan.

Yana bir ahamiyatli jihati shundaki, ushbu ziyoratgoh yonida Markaziy Osiyoda kattaligi jihatidan ikkinchi oʻrinda turuvchi buloq joylashgan boʻlib, ham mahalliy aholini ham ushbu hududga tashrif buyurgan sayyohlarni oʻzining zilol suvi bilan bahramand etib keladi. Buloq yer yorigʻida, yaʼni silur davriga oid ohaktoshlar orasidan sizib chiqadi. Novqa ota bulogʻi suvi hajmi boʻyicha Baxmal tumanidagi eng yirik buloq. Buloq suvi toʻplanadigan katta hovuzda koʻplab baliqlar mavjud. Mahalliy aholi baliqlarni ziyoratgoh hududida boʻlganligi sababli muqaddas baliqlar deb biladi va ovlamaydi.

Shuningdek koʻpchilik aholi eski qabriston va masjidlariga yaqinlari va ajdodlarini xotirlash uchun tashrif buyurishadi, Quʻron tilovat qilishadi va atrof muhitni tozalab ketishadi.

Xulosa oʻrnida shuni taʼkidlash joizki, Baxmal tumani hududiy joylashuvi va tabiiy imkoniyatlariga koʻra mahalliy va xorijiy sayyohlarni jalb qiluvchi asosiy makonlardan biri hisoblanib, bu yerda bir necha ziyoratgohlar, monumental sanʼat obyektlari hamda arxitektura yodgorliklari mavjud. Soʻnggi olti yil davomida bu hududga koʻplab mahalliy va xalqaro sayyohlarni tashrifini oshirish maqsadida asosiy magistral yoʻllar taʼmirlandi, yangi turajoylar, kempinglar, mehmonxona va ovqatlanish maskanlari barpo etildi. Xalq tabobatida foydali giyohlardan keng qamrovli foydalanish maqsadida tabobatxonalar, savdo rastalari barpo etilib, bu yerga tashrif buyuruvchilarga xarid uchun yaroqli holda sotiladi. Bu kabi erishilgan yutuqlar bilan bir qatorda baʼzi yechimini topmagan kamchiliklar ham mavjud boʻlib, turistik zonalarini qayta taʼmirlash uchun ajratilgan sarmoyalar hamda mahalliy homiy-tadbirkorlar yordamida yuqorida aytib oʻtilgan kamchiliklarni hal qilishga harakat qilinmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1. Qonun hujjatlari maʼlumotlari milliy bazasi, 15.08.2019-y., 06/19/5781/3567-son.
2. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni bilan tasdiqlangan “2022-2026-yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasi toʻgʻrisida” gi Farmoni.
3. Murtazayeva G.I. Rekreatsiya, ziyorat, gastro, agro-ekoturistik destinatsiyalar negizida turistik marshrutlar ishlab chiqish amaliyoti (zomin va baxmal tumanlari misolida) Railway transport: topical issues and innovations, 2024 №3 51-52-betlar.
4. Komilova N.K., Usmanov M.R., Safarova N.I., Matchanova A.E., Murtazaeva G.I.

Tourist destination as an object of research of social and economic geography // Psychology and education (2021) Vol 58(1): 2058-2067. ISSN:00333077.

5. Nilufar Komilova, Mashrab Usmanov “Jizzax viloyatida turistik destansiyalarni tashkil etishning hgududiy jihatlari” JDPU “Taxririyy-nashriyot bo‘limi nashri” Jizzax 2023. 141-bet.

6. Nurullayeva N.G., O‘ralov A. I. Jizzax viloyatida tarqalgan dorivor o‘simliklar. Ilmiy maqola. 281-bet.

7. Nilufar Komilova, Mashrab Usmanov “Jizzax viloyatida turistik destansiyalarni tashkil etishning hgududiy jihatlari” JDPU “Taxririyy-nashriyot bo‘limi nashri” Jizzax 2023. 141-,152-betlar.

8. Sanayeva Lola Shukurboevna. Ekoturizmning amaliy asoslari. Monografiya. “Ilm ziyo-zakovat” nashriyoti Jizzax- 2024. 54-bet.

9. O‘sha manba 55-bet.

10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida turizm infratuzilmasini yaxshilash va xorijiy turistlar oqimini yanada oshirishga qaratilgan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi qarori // Lex.uz.

11. “Baxmal sport turizmi maskaniga aylanmoqda”// Jizzax haqiqati. № 93 (6554).2024-yil 16-noyabr 3-bet.

12. [https:// Skyrunning nima? | OZSport.uz](https://skyrunningnima?|OZSport.uz)

13. Bahtiyor Eraliyev, Ikromiddin Ostonaqulov, Farrux Aqchayev. O‘zbekiston ziyoratgohlari va qadamjolari. Toshkent “Turon zamin ziyo” 2017.117-bet.

14. O‘sha manba. 122-bet.

15. [https:// Buloqlar va ularni ziyorat turizmidagi ahamiyati – Abdulla Qodiriy nomidagi Jizzax davlat pedagogika universiteti](https://Buloqlar%20va%20ularni%20ziyosat%20turizmidagi%20ahamiyati%20-%20Abdulla%20Qodiriy%20nomidagi%20Jizzax%20davlat%20pedagogika%20universiteti)